

DARSLARDA “METODIK O‘YINLAR”DAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Zuhraxon Yusupjanova

*Qo`rg`ontepa tumanidagi 44 – umumiy o`rta ta`lim maktabining
boshlang`ich sinf o`qituvchisi*


Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitishning asosiy vositalaridan biri bilimlarni tizimga solish, so`zlar va ularning grammatik shakllarini aniqlash, savodli yozuv ko`nikmalarini hosil qilishdir. O`quvchilar faolligini oshirishga erishishda bola xotirasida so`zlarning aniq va yorqin tasvirini mustahkamlash, so`z tarkibi va gap bo`laklarini to`g`ri hamda tez, ongli fikrlash qobiliyatini o`stirish o`qituvchi oldidagi eng murakkab vazifadir. Muayyan savollar asosidagi didaktik o`yinlar, muammoli vaziyat, mustaqil mutolaa, trening o`yinlar kabi usullardan foydalanish ona tili darslarining tez va oson tushunilishida ahamiyatlidir. Ona tili darslarida ilg`or innovatsiya asosidagi diktant turlaridan foydalanilsa, o`quvchilarda shunchalik qiziqish, intilish, imlo savodxonligi o`sib boradi. 1- sinf yakunida o`quvchilar harf bilan to`liq tanishib, o`rganib bo`ladi. Shundagina “Ko`rsatish diktantlari”ni tashkil etish mumkin. Masalan, o`qituvchi xattaxtaga 3 ta so`z yozib, tushib qolgan harflarni o`z o`rniga qo`yish topshiriladi.

Ki –t...b, daf – ta..., bo - ...a.

Rasmi diktantlar ham o`quvchilarning faolligini oshiradi. Bunday diktantlarni yozishga o`quvchilar juda ham oshiqishadi. Har bir ko`rsatilgan rasm nomini yozish, keying rasmni kutib turishlari o`yinni yanada qizitadi. O`qituvchi ko`rsatgan rasmlari orqasida nomlari yozilgan bo`ladi. Masalan:



oldi



orqasi

O`quvchilar rasm nomlarini qalamda yozadilar, ular yozib bo`lgach ustoz rasm orqasidagi so`zni ko`rsatib, “Qani kim to`g`ri yozdi ?” – deb murojaat qiladi. Xatosiz yozgan o`quvchilarni rag`batlantirib borishi shart. Xatoga yo`l qo`ygan o`quvchilar o`z xatolarini o`chirgichda o`chirib, to`g`rilab boradilar. Bularni ham maqtab, keyingi yozadigan so`zlarida e`tiborliroq bo`lishga chaqirib boradi. Qalamda diktant yozdirish ham qiziqarli, ham foydalidir. O`quvchi o`z xatosini o`chirib, qayta to`g`rilab yozsa, ya`ni “kitop” deb yozgan so`zidagi “p” ni o`chirib, o`rniga “ b” yozsa, u endi bu so`zni hech qachon xato yozmaydi. Qalamda diktant yozdirishni 3, 4 ta harf o`rganilgandan so`ng boshlash mumkin. Non, ot, ota, ona, ana kabi so`zlardan boshlab, barcha harflarni

o`rganib bo`lguncha bu o`yinni davom ettirish maqsadga muvofiqdir. 2- sinfga borib bu kabi so`zlar soni orttiriladi, murakkablashtiriladi.

Ona tili darslarida o`quvchilarning faolligini oshirishda boshqa usullardan ham foydalanish mumkin:

3-4- sinf o`quvchilari uchun xattaxtaga bir nechta so`z yozib, mavjud so`zlar ishtirokida gap tuzish ta`kidlanadi. Masalan : chiroyli, xonalari, yorug`, va , bizning, o`quv, maktabimizda, ko`p.

Bu kabi so`zlardan: *Bizning maktabimizda chiroyli va yorug` o`quv xonalari ko`p.* singari gap hosil qilish mumkin. Gaplarning soniga qarab vaqt ajratib, qatorlararo musobaqa tashkil qilinsa, o`quvchi faolligini yanada oshirishga, darsning qiziqarli bo`lishiga erishgan bo`lamiz. Topshiriqni tez va to`g`ri bajargan o`quvchi o`z vaqtida baholanadi. Musobaqada g`olib bo`lishga intilish o`quvchi faolligini oshiribgina qolmay, balki ongli o`zlashtirishni ham ta`minlaydi.

Yana bir usul:

“Kim ko`p so`zni eslab qoladi?” diktant o`yini bo`lib, o`quvchi tomonidan ketma-ket, takrorlangan holda bir nechta so`z aytiladi. Bu so`z birinchi sinf oxirida 2 ta , ikkinchi sinfda 2 yoki 3 ta , uchinchi sinfda 3 yoki 4 ta , to`rtinchi sinfda esa 4, 5 tani tashkil etadi. O`quvchi aytilgan so`zlarni eslab daftariga yozadi. Masalan: *sabzi, sedana, jo`ja, Jahongir , javob, karam, kitob, katta, kulcha, Davron , daraxt, do`lana, do`ppi, do`l.*

O`quvchilar diktant yozish jarayonida so`zlarning ketma – ketlik darajasini buzmaslikka , to`liq va tez yozishga harakat qilishlariga yo`naltirilib boriladi. Bu diktant turini amalga oshirish orqali o`quvchilarning eslab qolish qobiliyatlarini rivojlantirish, mashg`ulotning qiziqarli bo`lishini ta`minlash maqsad qilib olinadi. Ona tili darslarida diktant o`yinlari, masalan: *“Bo`g`inga ajrat”, “ Kim tezroq”, “O`ylab top”* va boshqalarda foydalanish ham mumkin. Didaktik o`yinlarni rejalashtirayotganda bir qator qoidalariga amal qilish lozim:

1) o`yin o`quvchi o`zlashtirishi lozim bo`lgan material uchun mustahkamlovchi omil bo`lib xizmat qilishi;

2) o`quvchi o`yinning maqsadini aniq bilishi va unga erishish uchun harakat qilishi;

3) o`quvchi o`yinning borishi va qoidalarini batafsil tushunishi lozim.

Yuqoridagi o`yinlardan biriga to`xtalib o`tamiz.

“Bo`g`inga ajrat” o`yini asosan 1 – 2- sinflarda olib boriladi va o`quvchilarning og`zaki nutqini o`stirishga yordam beradi. O`yin shartiga ko`ra o`quvchi qo`liga koptokcha yoki ushlash uchun qulay bo`lgan narsa, buyum beriladi. O`quvchilar o`qituvchi aytgan so`zni bo`g`inga ajratadilar. Masalan: birinchi o`quvchi *“istiqlol”* so`zining *“is”* bo`g`inini aytib, qo`lidagi koptokchani ikkinchi o`quvchiga beradi, ikkinchi o`quvchi *“tiq”*, uchinchi o`quvchi *“lol”* bo`g`inlarini aytadilar. Shu tariqa boshqa so`zlarni ham bo`g`inlarga ajratadilar. 3-4- sinflarda bu o`yinni murakkablashtirib borish mumkin. Masalan, bo`g`inlash o`rniga gap tuzish, matn,

hikoyachalar tuzish va hokazo. Navbatdagi o`quvchini faolligini oshirish uchun foydalaniladigan usullardan yana biri **“Muammoli vaziyat yaratish”** usulidir.

Boshlang`ich sinf ona tili darslarida “muammoli vaziyat yaratish” usullaridan foydalanish o`quvchilarning fikrlash qobiliyatini o`stirishda muhim omil bo`lib xizmat qiladi. Har bir sinfda bu usulni mavzuga mos holda tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bu usulni 3- sinf misolida ko`rsak.

Ma`lumki, 3- sinfda tovush va harf haqida murakkabroq tushuncha beriladi. Masalan, mavzuni **“Jarangli undoshlar”** deylik. Jarangli undoshlarning yozilishi haqidagi tushunchani berishda, avvalo, o`qituvchi tomonidan quyidagi gaplar o`qib eshittiriladi va shu gaplarni daftarga yozish topshiriladi.

Kitob – bilim manbai. Kitobni yotib o`qimang. Kitobingizni ehtiyot qiling.

“O`quvchilar kitob so`zini qanday yozdingiz?” , - deb so`ralganda ayrim o`quvchilar: “kitob”- desa , ayrimlari “kitop”- deydi. Yoki shu so`z yozdirilayotgan paytda uning yozilishi xususida, o`quvchilar o`zaro bahslashadilar. Shunda shu so`zning ikki xil yozilgani ma`lum bo`lsada, “Ammo ularning qaysi biri to`g`ri?” , - degan savol paydo bo`ladi. Bunda javob uchinchi gap orqali yechiladi. O`qituvchi so`nggi jumlanı eslatadi.

“Kitobingizni ehtiyot qiling !”

Bunday o`yinlarni barchasi o`quvchilar og`zaki, yozma nutqini o`stirish bilan bir qatorda, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, xotirani mustahkamlanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Farberman B.L, Musina R.G, Jumaboeva F.A. Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari. O`quv-uslubiy qo`llanma. T., 2002.
2. Podlaso`y I.P. Pedagogika M.,Vlados, 2002.
3. Xaydarov B, Nuriddinov B, Rasulov A. va boshqalar. Ta`lim samaradorligini oshirish yo`llari. Treninglar uchun qo`llanma. T., O`MKXTRI, 2002.
4. Nishonov A, Xaydarov B, Nuriddinov B. va boshqalar. Baxolash metodlari. O`quv metodik qo`llanma. T., 2003.